




O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

Maqsadli fikrlash ustoz uchun jamiyat strategiyasini belgilaydi

Mamasoliyev Jasur Axmadaliyevich Toshkent viloyati
pedagogik mahorat markazi "Aniq fanlar" metodik
xizmat ko'rsatish bo'limi matematika fani metodisti

- Bugungi ma'ruzamiz zamonaviy ta'lim jarayonida ustoz shaxsining jamiyatdagi o'rni va maqsadli fikrlash qobiliyati asosida qanday strategik yo'nalishlarni belgilashini zamonaviy ustoz bo'lish uchun turli xil strategiyalar hamda ularni tahlil qilishga bag'ishlanadi. Biz ustozni nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatga ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi kuch sifatida ko'rishimiz kerak. Ustozning fikrlash darajasi va maqsad sari harakatlari butun avlodning kelajagini shakllantiradi.

Maqsadli fikrlash ustoz uchun jamiyat strategiyasi belgilaydi





Maqsadli fikrlash – bu insonning har bir harakatini aniq maqsad asosida yo‘naltirishi, o‘z oldiga vazifalar qo‘yib, ularga erishish yo‘llarini izlab topishi demakdir. Bu fikrlash turi harakatga aniqlik, samara va natijadorlik olib keladi.

Ustoz uchun maqsadli fikrlash nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

- Aniq maqsad asosida harakatni yo‘naltirish;
- Vazifalar qo‘yilib, ularga erishish yo‘llarini izlab topish va harakat qilish;
- Natijaga erishish va shaxsiy rivojlanish;

Maqsadli fikrlash — bu shunchaki fikrlash emas, balki reja asosida, aniq maqsad sari yoʻnaltirilgan, natijaga erishilgan tafakkurdir. Bu yondashuv orqali yoshlar mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va toʻgʻri qaror qabul qilishga oʻrnatilgan.


Ustoz esa bu jarayonda yoʻl koʻrsatuvchi, yoʻnaltiruvchi va ilhom beruvchi shaxsdir. U har bir darsni aniq maqsad asosida rejalashtiradi, oʻquvchining shaxsiy ehtiyoj va imkoniyatlarini inobatga oladi va harakatlarini natijadorlikka qaratadi. Ayniqsa, matematika fanida bu juda muhim — masala yechimi, formulani tushunish va qoʻllashda oʻquvchi maqsadga intilishi kerak.

Ustozning maqsadli fikrlashga bo'lgan yondashuvi o'quvchilarda ham shunday ko'nikmalarni shakllantiradi. O'z faoliyatida mas'uliyat, puxta rejalashtirish, tahlil qilishni odat qilgan o'qituvchi jamiyatda ongli, faol va mas'uliyatli shaxsni tarbiyalaydi.

Shunday ekan, ustozning maqsadli fikrlashdagi oʻrni — bu faqat bilim berish emas, balki har bir oʻquvchining ichki salohiyatini ochish, uni mustaqil va toʻgʻri yoʻlga boshlashdan iboratdir.



Davrlar stoli




1. 2023 -YIL

2. 2024- YIL

3. 2025- YIL

4. 2026- YIL

5. 2027- YIL



Burgut tarixi





JAMIYAT STRATEGIYASINI BELGILOVCHI USTOZ

“Bitta bola, bitta o‘qituvchi, bitta kitob va bitta ruchka dunyoni o‘zgartirishga qodir”

Ustoz – millat tarbiyachisi. U har bir o‘quvchining qalbiga yo‘l topadi, ularni Vatanga, ilmga, adolatga, mehnatga sodiq qilib tarbiyalaydi. Strategik fikrlovchi ustoz jamiyatdagi muammolarni ilg‘aydi, ularning yechimlarini izlaydi, boshqa ustozlar, ota-onalar, mahalliy hokimiyat bilan hamkorlikda ishlaydi. Ustozning bir kunlik qarori, ko‘p yillik natijani beradi. Shu bois, ustoz har doim uzoqni ko‘zlagan, keng fikrlovchi bo‘lishi kerak.



Qanday qilib maqsadli fikrlovchi ustoz bo'lish mumkin?

Aniq maqsadlar qo'yish: yillik, oylik, kunlik rejalarga ega bo'lish.


O'z ustida ishlash: kitob o'qish, seminar va treninglarda qatnashish.

O'zgarishlarga ochiq bo'lish: innovatsiyalarni qabul qilish.

Natijani tahlil qilish: o'z faoliyatini doimiy baholab borish.

Hamkorlikda ishlash: boshqa ustozlar bilan tajriba almashish.





Xulosa

Maqsadli fikrlash ustoz uchun shunchaki bir intilish emas, balki bu uning kasbiy faoliyatining asosi, jamiyatga ko'rsatadigan strategik ta'sirining poydevoridir. Har bir ustoz o'z maqsadini aniqlab, shu yo'lda qat'iy harakat qilsa, bu butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Zero, kelajagimiz ustozlar qo'lida ekan, biz o'qituvchilar tinmay mehnat qilib o'z ustimizda ishlashdan to'xtamasligimiz zarur.



E'tiboringiz uchun rahmat!